

DAVLAT APPARATI: NAZARIY-HUQUQIY TAHLIL

Allambergenov Saparbay Dauletbayevich

*O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti dotsenti,
yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada davlat, apparat va davlat apparati tushunchalari, davlat apparatining asosiy belgilari, davlat apparati tizimida parlament va hukumat faoliyati, mustaqil O'zbekiston Respublikasi va uning tarkibidagi suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyat organlari, davlat apparatini boshqarish asoslari va vakolatlarning taqsimlanish prinsiplari hamda hokimiyatlar taqsimlanish jihatlari haqida fikrlar ilgari surilgan.*

Kalit so'zlar: *«Davlat», «Apparat», «Davlat apparati», «Parlament va hukumat», «Mustaqil O'zbekiston Respublikasi», «Suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi», «Davlat apparati taqsimlanish prinsiplari», «Davlat apparati taqsimlanish jihatlari».*

Аннотация: *В статье излагаются представления о понятиях государства, аппарата и государственного аппарата, основных признаках государственного аппарата, деятельности парламента и правительства в системе государственного аппарата, органах государственной власти независимой Республики Узбекистан и входящей в ее состав суверенной Республики Каракалпакстан, основах управления государственным аппаратом и принципах распределения полномочий, а также аспектах распределения полномочий.*

Ключевые слова: *«Государство», «аппарат», «Государственный аппарат», «Парламент и правительство», «Независимая Республика Узбекистан», «Суверенная Республика Каракалпакстан», «Принципы размещения государственного аппарата», «Аспекты размещения государственного аппарата».*

Abstract: *This article presents the concepts of state, apparatus and state apparatus, the main features of the state apparatus, the activities of parliament and government in the system of the state apparatus, the state authorities of the independent Republic of Uzbekistan and the sovereign Republic of Karakalpakstan within it, the foundations of management of the state apparatus and the principles of the distribution of powers, and aspects of the distribution of powers.*

Keywords: *"State", "Apparatus", "State apparatus", "Parliament and government", "Independent Republic of Uzbekistan", "Sovereign Republic of Karakalpakstan", "Principles of the distribution of the state apparatus", "Aspects of the distribution of the state apparatus".*

Davlatga o'z hokimiyatini amalga oshirish imkonini beruvchi tashkiliy – moddiy kuch – bu davlat apparatidir. Bu apparat davlatning nimadan tashkil topganligini anglatadi.

Davlat apparati – davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi organlar tizimi bo'lib, u davlat oldida turgan maqsad va vazifalarni bajarishga qaratilgan asosiy funktsiyalarni ado etadi.

Apparat – jamiyatda boshqaruvni amalga oshiruvchi lavozimli xodimlar va boshqaruv organlari yig'indisi hisoblanadi.

Davlat va huquq nazariyasida davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi maxsus tashkilot “davlat apparati” va “davlat mexanizmi” atamallari bilan ifolanadi.

Davlatning institutsiyaviy elementi – bu, davlat hokimiyatining uyushtirilishi, tashkillashtirilganligi, ya'ni tashkilot sifatida rasmiylashtirilganligidir. Davlatni tashkilot sifatida turli nuqtai nazardan talqin etish mumkin. Terang ma'noda, davlat – bu, mamlakatning butun aholisini qamrab oladigan ierarxik (pag'onama-pag'ona uyushgan) tashkilot bo'lib, bunda aholi davlatning boshlang'ich elementi hisoblanadi. Aholining bu uyushmasi – tashkilotida, bir tomondan – “boshqariluvchi fuqarolar” bor, ikkinchi tomonda – butun tashkilotni boshqaruvchi apparat mavjud [1].

Davlat apparatida jamiyat oldidagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalaridagi vazifa va funktsiyalarni bajarish maqsadida, bir qancha davlat organlari ierarxiya asosida, yagona bir tizimga birlashadi. Shuningdek, u o'z funktsiyalarini bajarib, davlat hokimiyatini amalga oshiradi. Davlat mexanizmini tashkil etish muayyan ob'ektiv printsiplarga tayanadi. Bu esa jamiyatni davlat tomonidan samarali idora etilishini ta'minlaydi[2].

Yuridik adabiyotlarda “davlat apparati” va “davlat mexanizmi” tushunchalari sinonim tushuncha sifatida keltirilgan. Ushbu tushunchalarda davlat mexanizmi davlat apparati tushunchasiga nisbatan kengroq ma'noga ega bo'lib, davlat mexanizmi davlat apparati va uning tashkilot (davlat korxona va muassasa)lari ishtirokda jamiyat boshqaruvini amalga oshiradi. Ya'ni, bir so'z bilan aytganda davlat apparati va uning tashkilotlari davlat mexanizmining yaxlit tuzilmalari hisoblanadi.

Davlat apparati (inglizcha - machinery of government) – shakli, turi, kompetentsiyasi va maqomiga bog'liq bo'lmagan holda mamlakatning barcha organlari majmuidir. Davlat apparati – o'zaro bir-biri bilan bog'langan, bir tizimda mujassamlashgan va xalq oldidagi vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan davlat organlari majmuidir.

Davlat apparati – uning faoliyatini tashkil etish va printsiplari, faoliyat yo'nalishlari, shaxsiy tarkibi, ish yuritish shakli va uslublari hamda mamlakatning ta'luqli funktsiyalarni amalga oshirish ehtiyojlari bilan belgilanadi. Davlat apparati – konstitutsiyaviy huquq fanida davlat hokimiyati va davlatning tegishli vazifa va vakolatlarini amalga oshiradigan organlar tizimi sifatida belgilangan.

Davlat apparati – jamiyat oldida turgan vazifalar (funktsiyalar)ni amalga oshirish uchun tashkil etiladi. Ana shu vazifalar (funktsiyalar) davlat organlarining turlari va faoliyat shaklini belgilab beradi. Davlat apparati – yutuk malaka, oqilona qaror, kam saf xarajat va samarali faoliyat, bir so'z bilan aytganda, jamiyat manfaatlariga to'la xizmat qilishni talab etadi.

Davlat apparati – barcha organlar, ya'ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlari majmuidir.

Davlat apparatini keng izohlash ham mumkin. Bunda ana shu tushunchaga faqat davlat organlarining o'zi emas, balki davlat muassasalarining ma'muriyati ham qamrab olinadi[3].

Davlat apparatining asosiy belgilarini qo'yidagicha tasniflash mumkin:

a) boshqaruv faoliyatini amalga oshiruvchi alohida vakolatli shaxs yoki birlashgan odamlar guruhi;

b) davlat organlarini tashkil etish, muvofiqlashtirish, yo'naltirish va nazorat qilish kompetentsiyasiga ega bo'lgan, shuningdek, o'zaro bo'ysunish asosida bog'langan davlat organlari tizimidir;

s) ta'luqli vakolatlarni amalga oshirishda ma'lum bir huquq, zarur mablag' va majburlash qurolining mavjudligi va hokazo.

Davlatning asosiy vazifa va vakolatlarini amalga oshirish uchun davlat organlari tashkil etiladi. Ushbu organlar o'z tarkibidagi tuzilmalar bilan birgalikda yuklatilgan kompetentsiyalarning samarali bajarilishi uchun javobgar hisoblanadi. Jumladan, mamlakatda qabul qilingan qonunlar ijrosini ta'minlash uchun hukumat shakllantiriladi, qonunlarning ijrosi bo'yicha parlament nazoratini tashkil etish uchun esa dastlab vakillik organi shakllantiriladi.

Davlat hokimiyatini tashkil etish va faoliyatini amalga oshirishda esa vakolatlarning taqsimlanish printsiplari asosida belgilanadi. Aksariyat rivojlangan xorijiy mamlakatlarda davlat boshqaruvi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati, shuningdek, boshqaruv idoralari tarkibida tashkil etilgan. Shu qatori mustaqil O'zbekiston Respublikasi va uning tarkibidagi suveren Qoraqalpog'iston Respublikasida ham davlatning uchta tayanchi bo'lgan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatidan tashkil topgan[4].

Davlat ishlarini samarali amalga oshirishda davlat apparati oldiga qator vazifalarni amalga oshirish talab qilinadi. Xususan, davlat apparatida yuqori uyushqoqlik, vakolatlari asosida omilkor harakat, tajriba va mahorat hamda profesionalizm talab etiladi.

Davlat apparati o'z boshqaruvini qo'yidagi asoslarga ko'ra amalga oshiradi:

1. Davlat apparatining yagonaligi va maqsadlar mushtarakligi.

Bunda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, shuningdek, davlat tashkilotlari (korxona va muassasalar) bir-biriga bo'ysinish asosida faoliyati tashkil etilganligidir. Ya'ni, ushbu davlat organlari bir-biridan turi va maqomi jihatidan farq qilishiga qaramay, bir butunning qismlari hisoblanib, faoliyat yo'nalishlariga ko'ra har-xil vakolatlarni amalga oshiradi. Mazkur davlat organlari asosiy maqsadi insonlarning farovon hayoti uchun munosib shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan bo'lib, o'zaro hamkorlik va aloqadorlikda faoliyatini amalga oshiradi.

Davlatning umumiy maqsadi – shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari yo'lida barcha davlat organlarini yagona tizimga birlashtirish va faoliyat yuritishini ta'minlashdan iborat.

Asosiy qonunda “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar”, “davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va Konstitutsiya hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan organlar tomonidagina amalga oshiriladi”, degan konstitutsiyaviy qoida mustahkamlangan.

2. Qo'yidan yuqoriga (ierarxik) bo'ysinish tizimiga asoclanganligi.

Davlat apparatining yaxlit bo'g'inlari bo'lmish hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlari o'z tarkibidagi tuzilmalari faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish, yo'naltirish va nazorat qilish yoki tugatish funksiyasini amalga oshirishning huquqiy mexanizmi mavjud bo'lib, ushbu jarayonlarda qo'yi tuzilmalar tomonidan yuqori davlat organlarining normativ-huquqiy hujjatlari ijrosini ta'minlash majburiyati yuklatiladi. Masalan,

oliy ijro etuvchi davlat hokimiyat (hukumat)ning qarorlari tegishliligi bo'yicha markaziy (vazirliklar va boshqa idoralar) yoki mahalliy ijro etuvchi davlat hokimiyat organlari (viloyat va shahar-tuman hokimliklari) tomonidan samarali ijro etish majburiyligini qayd etish mumkin. Xususan, Asosiy qonunning 116-moddasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq va vakolatiga tegishli konstitutsiyaviy normalar doirasida hamda O'zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi umummajburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar qabul qiladi.

Davlat apparati tegishli davlatning vazifalari va vakolatlarini bevosita davlat organlari, davlat muassasalari va davlat tashkilotlari ishtirokida amalga oshiradi. Ushbu organlar o'z maqomi, tarkibiy tuzilishi va faoliyat yo'nalishlari bo'yicha bir-biridan farq qiladi.

Shu o'rinda "davlat organlari", "davlat tashkilotlari" va "davlat muassasalari" tushunchalarini nazariy-huquqiy jihatdan yoritishga harakat qilamiz.

Davlat organlari – davlatning tegishli funksiyalarini amalga oshiruvchi davlat hokimiyati vakolatiga ega bo'lgan davlat apparatining asosiy bo'g'inidir. Jumladan, sud, nazorat qiluvchi va huquq-tartibot organlari davlat hokimiyati vakolatiga ega bo'lgan organlardir.

Davlat tashkilotlari – davlatning alohida strategik funksiyalarini amalga oshiruvchi davlat tuzilmasidir. Jumladan, jamiyat ehtiyoji uchun zarur bo'lgan kommunal, transport va aloqa sohaslarini qayd etishimiz mumkin.

Davlat muassasalari – davlatning ijtimoiy sohadagi funksiyalarini amalga oshiruvchi hokimiyat vakolatlariga ega bo'lmagan davlat idorasidir. Jumladan, madaniyat, san'at, kutubxona, muzey va shifoxonani keltirishimiz mumkin. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi davlat organi hisoblansa, ushbu davlat organi faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish uchun tarkibida tashkil etiladigan ta'lim muassasalari, kadr, o'z xavfsizlik, tibbiyot, moliya-iqtisod va xo'jalik xizmatlari uning yordamchi tuzilmalari hisoblanadi.

3. Ishontirish va majburlash apparatining mavjudligi.

Davlat apparati tizimida hokimiyat va boshqaruv organlari asosan ishontirish va majburlash hamda rag'batlantirish usullari orqali ish yuritadi. Xususan, vakillik organi qonunlarni qabul qilish, o'rnatilgan tartibda kuchga kiritish yoki o'nga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yohud bekor qilish mexanizmida uning ijrosi bo'yicha parlament nazoratini amalga oshirsa, ushbu qonunlarning ijrosi hukumat va boshqa ijro etuvchi davlat hokimiyati organlari ishontirish orqali boshqarish, majburlash va rag'batlantirish usullaridan, sud, prokuratura va huquq-tartibot organlari esa, asosan ishontirish va majburlash usullari orqali huquq normalarini amaliyotga joriy etadi. Xususan, Asosiy qonunning 133, 134 va 135 moddalarida "Konstitutsiyaviy sudning qarori qat'iy va uning ustidan shikoyat qilinishi mumkin emas", "O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan qabul qilingan hujjatlar qat'iy hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining butun hududida bajarilishi majburiydir", "Sud hokimiyatining hujjatlari barcha davlat organlari va boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar hamda fuqarolar uchun majburiydir" deb belgilangan konstitutsiyaviy qoidalarni keltirishimiz mumkin va hokazo.

Jamiyatda o'rnatilgan huquq normalari va printsiplari asosida davlat apparati tashkil etiladi va uning faoliyatini belgilanadi. Ushbu jarayonda huquq normalari davlat apparatini tashkil etish huquqiy mexanizmini tartibga solsa, printsiplar esa, davlat apparatining faoliyat yo'nalishlarini belgilaydi.

Davlat apparatini tashkil etish va faoliyatini belgilashning asosiy printsiplari:

I. Davlat apparatida vakolatlarning taqsimlanish printsiipi.

Davlat apparati tizimidagi asosiy uchta tarmoq – vakillik, ijroiya va sud hokimiyatidir.

Ma'lumki, qadimdan hozirgi kunga qadar o'z dolrzarbligi bilan ajralib turadigan hokimiyatlar bo'linish printsiipi bo'yicha soha olimlari va huquqni qo'llash sub'ektlari tomonidan ilmiy-nazariy va huquqiy jihatdan tadqiq etib kelinmoqda. Xususan, tarixdan ayonki hokimiyatlar bo'linish g'oyasini dastlab yangi davr faylasuflari Dj.Lokk va Sh.Monteske asarlarida[5] qayd etilgan.

Chunonchi, ingliz mutafakkiri Dj.Lokk, hokimiyatlar bo'linish nazariyasining asosiy qoidalarini tizimlashtirib, “qonunchilik hokimiyatini faqat saylab qo'yiladigan organ orqali amalga oshirilishini, vakillik organlari qonunlarni ijro etish bilan shug'ullanishi mumkin emasligini ta'kidlab, muntazam faoliyat yurituvchi ijro hokimiyat organlarini barpo qilish”ni taklif etib, davlat hokimiyatining poydevori sifatida ijtimoiy shartnoma[6]” g'oyasini ilgari surgan. Frantsuz mutafakkiri Sh.Monteske esa, hokimiyat bo'linishi nazariyasini rivojlantirib, “qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati to'g'risida qoidalarini ishlab chiqqan”. Ungacha sud hokimiyati hech bir soha olimlari tomonidan alohida hokimiyat sifatida ajratilmagan. U “qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatning bir shaxs yoki idora qo'lida bo'lishi hamda qo'shilib ketishi erkinliklarning cheklanishiga olib kelishi mumkinligini, xuddi shuning barobarida sud hokimiyatining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatdan mustaqil mavjud bo'lmasligi ham erkinlikni cheklashi haqida ogohlantiradi[7]”.

XIX-XX asrlarda hokimiyatlar taqsimlanishi g'oyasi borgan sari kengroq tarqalib, vaqt o'tishi bilan sivilizatsiya va demokratiyaning umum e'tirof etgan printsiipiga aylandi[8].

Hokimiyatlar taqsimlanishi – davlat tuzilmalarining samarali faoliyat ko'rsatishi, suiiste'molliklarning oldi olinishi, inson huquqlari va erkinliklarining himoya etilishi, umuman qonuniylik ta'minlanishining mustahkam garovidir. Hokimiyatlar taqsimlanishi real qaror topmasa, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, adolatli huquqiy qonunchilik qaror topishi dargumon[9]. Hokimiyatlarning bo'linishi davlatda huquqning rivojlanganlik darajasini ko'rsatadi, ya'ni usiz huquqiy davlat ham, adolatli qonunlar ham bo'la olmaydi[10].

Hokimiyatlar taqsimlanishi uchta jihatda qo'yidagicha namoyon bo'ladi:

1. Xokimiyatning funktsional bo'linishi. Erkinlikni ta'minlash uchun majburlash (kuch ishlatish) to'g'risidagi qarorni qabul qilish funktsiyasini davlat majburlovini amalga oshirish funktsiyasidan farqlay bilish kerak. Qonun chiqaruvchi hokimiyat kuch ishlatish qoidalarini o'rnatadi, sud hokimiyati kuch ishlatishning aniq choralarga yo'l qo'yadi yoki ular yuzasidan farmoyish beradi. Shuning uchun ham ushbu hokimiyat tarmoqlarining har biri davlat majburlovini alohida amalga oshirmasligi kerak. Ijro etuvchi hokimiyat aynan shunday kuchga ega, lekin u ham o'z navbatida kuch ishlatish bo'yicha normativ yoki individual qarorlar chiqarmasligi shart. Shundan kelib chiqqan holda ijro etuvchi hokimiyat qonunlar va sud qarorlari asosida va ularni bajarish yo'lida harakat qilmog'i lozim.

2. Xokimiyatning institutsional bo'linishi. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud funktsiyalarini bajarish bir shaxs yoki muassasa qo'lida jamlanmasligi kerak. Hokimiyatning bo'linishi majburlov kuchiga ega bo'lgan instantsiyalarni kuch ishlatish to'g'risida qaror qabul qiluvchi instantsiyalardan ajratishni, ya'ni kuch ishlatish vakolatiga ega bo'lgan va kuch ishlatish haqida qaror qiladigan organlarni bo'lib yuborishni bildiradi.

Shu ma'noda hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlarga bo'linishi, bir tomondan, ijro etuvchi hokimiyat tarmoqlari birlamchi norma ijodkorligi bilan shug'ullanish, normativ hujjatlar e'lon qilishga haqli emasligini, ikkinchi tomondan, qonun chiqaruvchi ijro etuvchi organlar faoliyatiga aralasha olmasligini, ijro etuvchi hokimiyat vakolatiga kiruvchi qarorlarni qabul qilishga haqqi yo'qligini bildiradi. Aks holda, qonun chiqaruvchi bir vaqtning o'zida kuch ishlatish qoidalarini o'rnatadigan kuchga ham aylanib qoladi.

Sud hokimiyatini qonun chiqaruvchi hokimiyat bilan qo'shib yuborishning mumkin emasligiga shubha yuk. Agar sudya o'zi sud qiladigan qoidalarni o'rnatib, o'zi o'zgartiradigan bo'lsa, u holda noxolis sudga ega bo'lamiz.

3. Hokimiyatning shaxslar bo'yicha bo'linishi. Qonun chiqaruvchi organlar tarkibiga ijro etuvchi hokimiyat xodimlari va sudyalari kirmaydi, ya'ni qonun kuchiga ega bo'lgan qarorlarning bo'lg'usi ijrochilari deputat bo'lib saylanishlari mumkin emas. Biroq hukumat a'zolari bir paytning o'zida ham parlament deputatlari bo'lgan parlamentar mamlakatlar (Buyuk Britaniya, Germaniya kabilar) da bu printsipl amal qilmaydi. Ayni paytda, bu holatni xokimiyat bo'linishi printsiplining buzilishi deb hisoblab ham bo'lmaydi, chunki bunga parlamentar tipdagi mamlakatlarning qat'iy farqlanishi sifatida qarash to'g'ri bo'ladi.

Hokimiyat vakolatlarini konstitutsiyaviy bo'linishining bosh ma'nosi – ijtimoiy-siyosiy kuchlar orasida hokimiyat vakolatlarining oqilona taqsimlanishidir. Bundan maqsad – hokimiyatni suiiste'mol qilishning oldini olish, hokimiyatlarning bir-birlarini muayyan muvozanatda ushlab va cheklab turishidir. Bunda hokimiyat tarmoqlarining o'zaro bir-birini tiyib turishi va qarama-qarshi ta'sir etishi mexanizmini qaror toptirish o'ta muhim vazifa hisoblanadi.

4. Inson va fuqarolar asosiy huquq va erkinliklarining ustuvorligi printsipl. Inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat sifatida e'tirof etilishi printsiplidan kelib chiqqan holda davlat mexanizmi (apparati) o'z faoliyatini amalga oshirishi lozim. Davlat organlarini tashkil etishdan asosiy maqsad ham inson, uning manfaat va ehtiyojlarini ta'minlash, himoya qilish va ularga rioya etishdir. Davlat mexanizmi (apparati) o'z faoliyatida turli davlat organlarining normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish davrida inson huquq va erkinliklarining birlamchi ekanligidan, hech bir organ inson huquq va erkinliklariga zid hujjatlar chiqarishi mumkin emasligini kafolatlaydi. Zero, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham davlat fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlashi e'tirof etilgan. Har qanday demokratik huquqiy davlatda inson huquqlari oliy qadriyat sifatida tan olinadi va e'zozlanadi.

5. Demokratizm printsipl. Davlat mexanizmi (apparati) tashkil etilishi demokratik printsipl asosida amalga oshiriladi. Chunki, davlatning qonun chiqaruvchi organlari xalq tomonidan saylash orqali tashkil etiladi.

Davlat mexanizmi (apparati) xalqning ishtirokida shakllantiriladi, xalq hokimiyatini ifodalaydi, u ham o'z faoliyatida faqatgina xalq manfaatlariga xizmat qiladi.

6. Pog'onama-pog'ona bo'ysunish (ierarxiya) printsipti. "Ierarxiya" – bir-biriga o'zaro bo'ysunuvda bo'lish degan ma'noni anglatadi. Ierarxiya - pog'onama-pog'ona, piramida, o'zaro bo'ysunuvdagi kabi so'zlar bilan bir ma'noni anglatadi. Pog'onama-pog'ona joylashish printsiptining mazmuni shundaki, u davlat organlari tuzilishining bir shakli bo'lib, yuqori davlat organlarining vakolatlari quyi organlarning vakolatlariga nisbatan ko'proq hamda ular quyi organlarning faoliyatiga ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi oliy davlat organlarining qarorlari mamlakatning butun hududida quyi turuvchi barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror va farmoyishi Vazirlar Mahkamasi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari uchun majburiy ahamiyatga ega. Shuningdek, tuman hokimni chiqargan qarorni viloyat hokimi, viloyat hokimining qarorini Prezident va Bosh vazir bekor qilishga haqli.

7. Oshkoralik printsipti. Davlat mexanizmi (apparati)ga kiruvchi organlar o'z faoliyatini oshkoralik tamoyili asosida amalga oshiradilar. Qonun chiqaruvchi organ – parlament faoliyati jarayonida qabul qilinayotgan qonunlar loyihasini yoki qabul qilgan qonunlar matnini ommaviy axborot vositalari orqali xalqqa e'lon qilinishi hamda xalqni qonunlardan xabardor etilishi oshkoralikning ifodasidir. Shuningdek, ijro etuvchi hokimiyat tomonidan qabul qilingan farmoyish va qarorlarning to'plamlarda chop etilishi hamda sud organlari tomonidan chiqarilgan hukmlar (davlat va oila siri bilan bog'liq bo'lgan ishlar bundan mustasno) va qarorlar haqida ma'lumotlar bilan ham xalqning tanishishi uchun ochiq bo'lishi ham oshkoralik belgisidir. Oshkoralik davlat mexanizmi (apparati) faoliyatining asosiy mezon bo'lishi lozim. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari davlat apparati faoliyati haqidagi kundalik axborotni doimiy ravishda e'lon qilib turishi, xalqning jamiyatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy islohotlardan xabardor bo'lib turishi maqsadga muvofiq sanaladi.

8. Qonuniylik printsipti. Davlat mexanizmi (apparati)ning tashkil etilishi qonun yo'li bilan amalga oshiriladi. Davlat apparatining asosiy bo'g'ini bo'lgan qonun chiqaruvchi organ – Oliy Majlis, ijro etuvchi organ – Vazirlar Mahkamasi va sud organlari – Oliy sud, Oliy xo'jalik sudi va Konstitusiyaviy sud to'g'risida O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunlari qabul qilingan. Mamlakatimizdagi barcha davlat organlari qonun asosida tashkil etilib, qonun asosida faoliyat yuritadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga ko'ra, davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitusiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar. O'zbekiston Respublikasida qonundan tashqari, nooshkora, maxfiy va harbiy tashkilotlar tuzish taqiqlangan. Shuningdek, davlat organlari o'z faoliyatini qonun asosida amalga oshirishi shart. Har qanday davlat organlarining qonunlarda belgilab qo'yilgan vakolatlardan chetga chiqishi mumkin emas.

9. Professionalizm printsipti. Davlat apparati xizmatchilari o'z sohalarining yetuk mutaxassislari bo'lib, ular maxsus malaka va bilimga, yetarli tajriba va amaliy uquvga ega bo'lgan xodimlar hisoblanadi. Davlat apparatida xizmat qilayotgan xodimlar dastlab mazkur soha bo'yicha quyi organlarda xizmat qilgan, ushbu sohada boy tajribaga ega bo'lgan mutaxassis xodim bo'lishi shart.

10. Kollegiallik va yakkaboshchilikning birgaligi printsipli. Davlat apparati organlari o'z faoliyatini kollegiallik va yakkaboshchilik asosida amalga oshiradilar. Kollegiallik jamoaviy boshqaruv hisoblanib, Oliy Majlis quyi palatasi deputatlari va yuqori palatasi senatorlarining xizmat faoliyatida yaqqol ko'rinadi. Chunki ushbu organlar bamaslahat, muhokama tarzida bir-biri bilan hamkorlikda masalalarni hal etadilar. Masalan, Oliy Majlis qonun qabul qilishda bahamjihat ish tutadi. Yakkahokimlik yoki yakkaboshchilik printsiplida esa masala kollegiallikka o'xshash umum irodasining ro'yobga chiqishi bilan emas, balki xizmat sohasi yoki bo'lim boshlig'ining yakdil fikri asosida hal qilinadi. Masalan, Bojxona qo'mitasi raisining tegishli masala yuzasidan yakka tartibda buyruq chiqarishi, Vazirning buyrug'i va hokazo.

11. Saylanish va tayinlanishning uyg'unligi. Davlat mexanizmi (apparati)ning tashkil etilishi saylanish va tayinlanish orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasida oliy vakillik organlari Qonunchilik palatasi deputatlarining barchasi, Senat a'zolarining aksariyat qismi, Oliy sud organlarining rais va o'rinbosarlari saylash orqali tegishli vakolatga ega bo'ladilar. Ijro etuvchi organlarning barchasi tayinlash tartibida shakllantiriladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti vazirlar va hokimlarni lavozimiga tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi [11].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Проблема общей теории права и государства / Под ред. Проф. В.С.Нерсисянца. – М., 2008. С.565.
2. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. 2011. B. 160.
3. [Elektron manba]: Kirish tartibi - https://uz.wikipedia.org/wiki/Davlat_apparati // <https://lex.uz/dictionary?word=давлат%20>
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., 2023. 11-m. // <https://lex.uz/docs/6445145> / Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi. N., 1993. 11-m. // <https://joqargiken.es.uz/oz/qar-res-konstituciyasi>
5. Локк Дж. Два трактата о правлении // Сочинения: В 3-х т. – Т.3. М.: Мысль, 1988. – 405 с.; Монтескье Ш.Л. Избранные произведения. – М., 1955. – 799 с.; Монтескье Ш.Л. О духе законов / Сост., пер. И коммент. А.В. Матешук. – М.: Мысль, 1999. – С. 672.
6. Дж. Локк. // Сочинения: В 3-х т. – Т.3. М.: Мысль, 1988. – С. 349-350.
7. Монтескье Ш.Л. Избранные произведения: В 2-х т. – М.: Госполитиздат, 1955. – С. 290-291.
8. Баглай М.В. Конституционное право Российской Федерации: 6-е изд., изм. И доп. – М.: Норма, 2007. – С. 149.
9. Odilqoriyev X.T. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. – T.: 2002. – B.70.
10. Vohidov Z.T. O'zbekiston Respublikasida hokimiyat bo'linishi prinsipining amaliy ifodasi: Yurid. fan. nomz. ... dis. avtoreferati. – T.: 2000. – B.19.
11. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. 2011. B. 165-167.